



**2025-2027-YILLARGA MO'LJALLANGAN  
BANK TIZIMIDA IQLIM O'ZGARISHI BILAN  
BOG'LIQ MOLIYAVIY TAVAKKALCHILIKLARNI  
BOSHQARISH VA NAZORAT QILISH  
STRATEGIYASI**

2025-yil fevral

## MUNDARIJA

<b>Asosiy tushunchalar.....</b>	<b>3</b>
<b>1. Kirish.....</b>	<b>4</b>
<b>2. Iqlim o'zgarishi bo'yicha O'zbekistondagi umumiyl holat.....</b>	<b>4</b>
<b>3. O'zbekistonda iqlim o'zgarishining oldini olish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar.....</b>	<b>6</b>
<b>4. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha xalqaro tashabbuslar .....</b>	<b>8</b>
<b>5. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish sohasida xalqaro hamkorlik .....</b>	<b>11</b>
<b>6. Strategiyaning tamoyillari va ustuvor yo'nalishlari .....</b>	<b>12</b>
<b>6.1. Strategiyaning asosiy tamoyillari .....</b>	<b>12</b>
<b>6.2. Strategiyaning ustuvor yo'nalishlari.....</b>	<b>13</b>
<b>7. Kutilayotgan natijalar .....</b>	<b>14</b>
<b>8. 2025-2027-yillarga mo'ljallangan bank tizimida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish va nazorat qilish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "chora-tadbirlar reja-grafigi" .....</b>	<b>15</b>

## **Asosiy tushunchalar**

Ushbu Strategiyada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalilanildi:

**iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklar** – iqlim o'zgarishi yoki uni yumshatishga qaratilgan harakatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar (yo'qotish) ko'rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimollligi. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklar tabiiy tavakkalchiliklar va o'tish tavakkalchiliklarini o'z ichiga oladi;

**tabiiy tavakkalchiliklar** – bu quyidagi hodisalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar (yo'qotish) ko'rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimollligi:

- a) iqlim o'zgarishi bilan bog'liq keskin ob-havo hodisalari (yer ko'chkisi, bo'ron, sel, suv toshqinlari, o'rmon yong'ini va boshqalar);
- b) ob-havoning bosqichma-bosqich o'zgarishi (yog'ingarchilik va o'rtacha haroratning o'zgarib borishi, dengiz sathining ko'tarilishi);
- d) iqlim o'zgarishining bilvosita oqibatlari (cho'llanish, suv tanqisligi, tuproq sifatining buzilishi va boshqalar);

**o'tish tavakkalchiliklari** – "yashil" iqtisodiyotga o'tish munosabati bilan bevosita yoki bilvosita yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar (yo'qotish) ko'rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimollligi;

**"yashil" iqtisodiyot** (kam uglerodli iqtisodiyot) – resurslardan samarali foydalilanildigan, jamiyat manfaatlariga mos keladigan va issiqxona gazlari chiqindilari kam bo'lgan iqtisodiyot;

**barqaror rivojlanish** - iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi muvozanatni nazarda tutgan holda atrof-muhitga zarar keltirmaydigan va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan iqtisodiy o'sish;

**"yashil" taksonomiya** - atrof-muhitga salbiy ta'sir darajasini kamaytirishga qaratilgan va barqaror rivojlanishga mos keladigan iqtisodiy faoliyat turlari tasnifi.

## **1. Kirish**

Iqlim o'zgarishi va "yashil" iqtisodiyotga o'tish bu xalqaro miqyosda davom etayotgan jarayonlar bo'lib, nafaqat atrof-muhitga, balki mamlakatlar iqtisodiyoti va moliya tizimlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur jarayonlar natijasida yuzaga keladigan tabiiy va o'tish tavakkalchiliklari qarz oluvchilarning daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatish yoki banklar faoliyatining uzluksizligiga to'sqinlik qilish orqali banklarning kredit tavakkalchiliklariga moyilligini oshiradi.

Bu, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o'rnlarda Markaziy bank deb yuritiladi) tomonidan banklar faoliyati ustidan prudensial nazoratni amalga oshirishda ushbu tavakkalchiliklarni hisobga olinishini taqozo etmoqda.

Mazkur Strategiyada Markaziy bank tomonidan 2025–2027-yillar davomida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, uning **asosiy maqsadi** banklarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish amaliyotini yo'lga qo'yish va banklar faoliyati ustidan tavakkalchilikka asoslangan nazoratni amalga oshirishda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarni ham qamrab olishdan iborat.

Strategiya "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni tartibga solish va nazorat qilish sohasidagi xalqaro tajriba va standartlarga asoslanadi.

## **2. Iqlim o'zgarishi bo'yicha O'zbekistondagi umumiyl holat**


O'zbekiston Respublikasi Yevrosiyo mintaqasining markaziy qismida joylashgan bo'lib, uning umumiy maydoni 448,9 ming km<sup>2</sup>ni tashkil etadi. Hudud Markaziy Osiyoning qurg'oqchil zonasi tarkibiga kirib, maydonining 78,8 foizini tekisliklar, 21,2 foizini tog' va tog' oldi hududlari egallagan. Mamlakat hududining beshdan to'rt qismi cho'l va yarim cho'l hududlariga to'g'ri kelib, sharqdan va janubi-sharqdan ulkan tog' tizmalari bilan o'ralgan.

O'zbekiston keskin kontinental iqlim mintaqasiga mansub bo'lib, yozi issiq va quruq (yog'ingarchiliklarsiz), bahori nam, qishi o'zgaruvchan va keskin sovuq bo'lishi mumkin.

Mamlakat hududi shimol, g'arb hamda janubi-g'arbiy tarafdan turli xil havo massalari kirib kelishi uchun ochiq bo'lib, atlantik va arktik havo massalari shimaldan, shimoli-g'arbdan va g'arbdan keng tekisliklarga kirib keladi.

Eng issiq vaqtida (iyul) o'rtacha oylik maksimal harorat  $35,8^{\circ}\text{C}$  ni tashkil qilsa, qish oylarida o'rtacha oylik harorat  $-1^{\circ}\text{C}$  dan  $-3^{\circ}\text{C}$  gachani tashkil qiladi.<sup>1</sup>

### 1-chizma: O'zbekistonda yil davomidagi o'rtacha yer usti havo harorati va yog'ingarchilik miqdori



Manba: Jahon banki (2021), Iqlim o'zgarishi bo'yicha bilimlar portalı. O'zbekiston bo'yicha maxsus ma'lumotnoması.

Mamlakat hududlarida yog'ingarchilik darajasi sezilarli farqlarga ega bo'lib, markaziy hududlardagi cho'llarda yiliga 100 millimetrr (mm) dan kam yog'ingarchilik, tog'li hududlarda esa yiliga 800-900 mmgacha yog'ingarchilik yog'ishi mumkin.

O'zbekiston suv resurslarining asosiy manbalarini Amudaryo va Sirdaryo daryolari va ularning irmoqlarining yer usti oqimlari tashkil etadi. Global iqlim o'zgarishi, aholi soni va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi va ularning suvga bo'lgan talabi oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

O'zbekistonda foydalilanadigan o'rtacha yillik suv miqdori 51-53 mlrd  $\text{m}^3$ ni tashkil qilib, uning 97,2 foizi daryo va soylardan, 1,9 foizi kollektor tarmoqlaridan, 0,9 foizi yer ostidan olingan suvlar hisobiga to'g'ri keladi va mazkur ko'rsatkich ajratilgan suv olish limitiga nisbatan 20 foizga qisqargan.<sup>2</sup>

O'zbekistonda 1880-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda o'rtacha yillik harorat 1,6 darajaga ( $13,2^{\circ}\text{C}$  dan  $14,8^{\circ}\text{C}$  gacha) oshgan bo'lib, bu global

<sup>1</sup> Eng issiq yillarda yozda maksimal harorat  $+43^{\circ}\text{C}$   $+45^{\circ}\text{C}$  gacha, respublikaning janubi va cho'l zonasida  $+47^{\circ}\text{C}$   $+50^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tariladi.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-sون Farmoni.

miqyosda kuzatilayotgan o'rtacha sur'atlardan yuqori hisoblanadi. Prognozlar 2030–2050-yillarda mintaqada havo harorati yana 1,5 darajadan 3 darajagacha ko'tarilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, O'zbekiston iqlim o'zgarishi oqibatlari ta'siriga ko'proq moyil bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Ekspertlarning baholariga ko'ra atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasining bundan keyin ham ko'payishi, qurg'oqchilik natijasida suv va oziq-ovqat tanqisligi xavfining ortishiga, issiq mavsum davomiyligi va qizg'inligining oshishi tufayli aholi salomatligining yomonlashuviga, shuningdek sellar, toshqinlar va boshqa xavfli hodisalarning takrorlanishiga olib kelishi mumkin.<sup>3</sup>

So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi oqibatida respublika hududida tabiiy ofatlar soni sezilarli darajada oshgan bo'lib, tabiiy ofatlarning o'rtacha miqdori 2001–2010-yillarda 115 ta holatni, 2011–2022-yillarda esa 126 ta holatni tashkil etgan.

Ularning 46 foizini zilzilalar, 27 foizini sellar, 13,5 foizini yer ko'chkilari, 8,7 foizini kuchli shamollar, 2,4 foizini suv toshqinlari, 1,6 foizini tabiiy yong'inlar, 0,8 foizini qor ko'chkilari va boshqa hodisalar tashkil qilgan.<sup>4</sup>

Mazkur vaziyatlar, xususan global iqlim o'zgarishi va mamlakat tabiiy-resurs kompleksining ana shu o'zgarishlarga ta'sirchanligi respublikada izchil iqlim siyosatini shakllantirish va uni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

### **3. O'zbekistonda iqlim o'zgarishining oldini olish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar**

O'zbekiston iqlim o'zgarishining ahamiyatini e'tirof etgan holda 1993-yilning iyun oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishlari to'g'risidagi Hadli konvensiyasiga qo'shildi. Mazkur konvensiya iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro harakatlarning asosi bo'lib, atmosferadagi issiqxona gazlari konsentratsiyasini iqlimiyliz tizimga xavfli antropogen ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'ymaydigan darajada barqarorlashtirishga qaratilgan.

O'zbekiston 1999-yil 20-avgustda rivojlangan mamlakatlarga issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish yoki barqarorlashtirish majburiyatlarini yuklovchi xalqaro bitim – Kioto bayonnomasini ratifikatsiya qildi.

<sup>3</sup> O'zgidromet. (2021). Iqlim o'zgarishi bo'yicha O'zbekiston tomonidan ko'rildigan choralar va harakatlar.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdag'i "Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi 362-son qarori.

Mamlakat 2017-yilning aprel oyida Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimini imzolab, uni 2018-yilning oktabr oyida ratifikatsiya qildi. Ushbu bitimga asosan O'zbekiston iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ortib borayotgan global tahdidlarning oldini olish maqsadida global isishni sanoatlashtirish davrigacha (1750-yillar) bo'lган darajaga nisbatan 2°C ga saqlab turish hamda haroratning 1,5°C gacha o'sishini cheklashga harakat qilish bo'yicha majburiyat oldi.

Shuningdek, Parij bitimini amalga oshirish yuzasidan Milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MDBH) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2030-yilga kelib 2010-yildagi darajaga nisbatan 35 foizga qisqartirishini ma'lum qildi.<sup>5</sup>

Ushbu maqsadlarga erishish uchun 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi, 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi hamda 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasiga tasdiqlandi.

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasiga muvofiq "yashil" turdag'i faoliyatni tasniflash uchun Milliy "yashil" taksonomiya ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabrdagi 561-son qarori bilan tasdiqlandi.

"Yashil" taksonomiya iqtisodiy agentlarga iqtisodiy faoliyatni "yashil" (barqaror) deb atash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash imkonini beradigan tasnif hisoblanib, investorlarga, kompaniyalarga, emitentlarga va loyiha tashabbuskorlariga kam uglerodli, barqaror va resurslarni tejaydigan iqtisodiyotga o'tishda yordam beradi.

Qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishildi. Toshkentda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti tashkil etildi.

Shu bilan birga, ushbu yo'nalishdagi say-harakatlarni keng ko'lamda davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi.

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori.


#### **4. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha xalqaro tashabbuslar**

Iqlim o'zgarishi global muammo bo'lib, uni dunyo mamlakatlari qazib olinadigan yoqilg'i (ko'mir, neft va gaz) iste'molini kamaytirish yoki uni qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan almashtirish orqali issiqxona gazlari chiqindilari miqdorining kamayishi hisobiga hal qilishga harakat qilmoqda.<sup>6</sup>

Shunga o'xshash chora-tadbirlar, jumladan issiqxona gazlari chiqindisini kamaytirishga qaratilgan siyosiy harakatlar (uglerod solig'ini joriy qilish, ayrim sanoat amaliyotlarini taqiqlash), yangi texnologik ishlanmalarni joriy etish yoki investorlar va iste'molchilar xohish-istiklarining "yashil" mahsulotlar tomoniga o'zgarishi ayrim aktivlar qiymatining qadrsizlanishiga olib kelib, banklarning moliyaviy ahvoli va tavakkalchilik profiliga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qolaversa, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekstremal ob-havo hodisalari (yer ko'chkisi, bo'ron, sel, suv toshqini, o'rmon yong'ini va boshqalar) va surunkali ob-havo hodisalari (yog'ingarchilik va o'rtacha haroratning o'zgarib borishi, dengiz sathining ko'tarilishi, cho'llanish, suv tanqisligi, tuproq sifatining buzilishi va boshqalar) transmissiyaviy kanallar orqali banklarga bevosita va bilvosita moliyaviy yo'qotishlarni olib kelmoqda (*2-chizma*).

#### **2-chizma: Iqlim tavakkalchiliklari omillari va ularning transmissiya kanallari**



<sup>6</sup> Manba: Xalqaro hisob-kitoblar banki (2021), Iqlim tavakkalchiliklari drayverlari va ularning transmissiya kanallari.

<sup>6</sup> Olimlarning fikriga ko'ra atmosferada IG konsentratsiyasining oshishi global isishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Global isish esa o'z navbatida iqlim o'zgarishlariga olib boradi.

Shu munosabat bilan markaziy banklar va prudensial nazorat organlari tomonidan banklarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, boshqarish, oshkor qilish amaliyotini yo'lga qo'yish hamda nazorat organlarida banklarning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchilik profilini to'g'ri baholash salohiyatini shakllantirishga qaratilgan siyosatlar ishlab chiqilmoqda.

Xususan, 2019-yilning aprel oyida Angliya banki tomonidan birinchilardan bo'lib "Banklar va sug'urtalovchilarining iqlim o'zgarishidan kelib chiqadigan moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha yondashuvlarini takomillashtirish bo'yicha qo'llanma"<sup>7</sup> chop etildi.

2020-yilning noyabr oyida Yevropa Markaziy banki (YeMB) tomonidan "Iqlim va ekologik tavakkalchiliklar bo'yicha qo'llanma"<sup>8</sup> nashr etildi.

2022-yilning iyun oyida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi (BNBQ) "Iqlim o'zgarishi tavakkalchiligin samarali boshqarish va nazorat qilish tamoyillari"ni e'lon qildi.<sup>9</sup>

Mazkur hujjat yuqori darajadagi 18 ta tamoyilni o'z ichiga olgan bo'lib, ulardan 12 tasi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni samarali boshqarish bo'yicha banklarga tavsiyalar, 6 tasi esa iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni nazorat qilish bo'yicha markaziy banklar va prudensial nazorat organlariga tavsiyalardan iborat.

Hozirda markaziy banklar va prudensial nazorat organlari mazkur tamoyillarga asosan banklar va bank sektorining iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarga chidamlilagini baholashda stress-testlar va ssenariy tahlillardan keng foydalanmoqda.

Ssenariy tahlillarni o'tkazishda Moliyaviy sektorni yashillashtirish tarmog'i (MSYaT) tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi 7 xil ssenariy asosiy manba hisoblanadi.<sup>10</sup>

---


<sup>7</sup> Bank of England. (2019). Enhancing banks' and insurers' approaches to managing the financial risks from climate change. Supervisory Statement 3/19.

<sup>8</sup> European Central bank. (2020). Guide on climate-related and environmental risks. Supervisory expectations relating to risk management and disclosure.

<sup>9</sup> BIS. (2021) Principles for the effective management and supervision of climate-related financial risks

<sup>10</sup> NGFS. (2023). NGFS Scenarios for central banks and supervisors.

### 3-chizma: MSYaT ssenariylari



Manba: MSYaT (2023), Markaziy banklar va nazoratchilar uchun MSYaT ssenariylari

**1. “Sof nol 2050” ssenariysi** kuchli iqlim siyosati va innovatsiyalar orqali global isishni  $1,5^{\circ}\text{C}$  gacha cheklash va 2050-yilga kelib  $\text{CO}_2$  chiqindilarining sof nol qiymatiga erishishni nazarda tutadi.

**2. Harorat  $2^{\circ}\text{C}$  dan past ssenariysi** iqlim siyosatining asta-sekin qat'iylashtirilishi, 67 foiz ehtimollik bilan global isishni  $2^{\circ}\text{C}$  dan pastga cheklash imkoniyatini berishni nazarda tutadi.

**3. Past talab ssenariysi** uglerod chiqindilariga narx (soliq) belgilanishi, texnologiyalarga asoslangan say-harakatlar va ularga qo'shimcha ravishda energiya resurslariga bo'lgan talabning kamayishi natijasida 2050-yilga kelib  $\text{CO}_2$  chiqindilarining sof nol qiymatiga erishish uchun iqtisodiy tizimga bosim yumshashini nazarda tutadi.

**4. Kechiktirilgan o'tish ssenariysi** global yillik chiqindilar 2030-yilgacha kamaymasligini taxmin qiladi. Bu esa isishni  $2^{\circ}\text{C}$ dan past darajaga cheklash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshiririshni talab etadi.

**5. MDBH ssenariysi** MDBH hali amalga oshirilmagan bo'lsa ham barcha va'da qilingan chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.

**6. Joriy siyosat ssenariysi** faqatgina hozirgi kunda amalga oshirilayotgan siyosatlar saqlanib qolishi va bu yuqori tabiiy tavakkalchiliklarga olib kelishini nazarda tutadi.

**7. Parchalangan dunyo ssenariysi** kechiktirilgan va global miqyosda turli iqlim siyosatlari yuritilishini nazarda tutadi, bu esa o'tishning umumiy samarasizligi tufayli ba'zi mamlakatlarda yuqori o'tish tavakkalchiliklari va barcha mamlakatlarda tabiiy tavakkalchiliklarga olib keladi.

## **5. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish sohasida xalqaro hamkorlik**

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklar bo'yicha global standartlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi bir qator xalqaro tashkilotlar mavjud. Mazkur tashkilotlar bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish sohasida milliy organlarga institutsional bilimlar va ilg'or tajribalarni almashish hamda transchegaraviy hamkorlik qilishga ko'maklashadi.

BNBQ va Moliyaviy barqarorlik kengashidan tashqari faoliyati iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarning prudensial nazorat organlari tomonidan qamrab olinishiga ko'maklashishga qaratilgan yangi tashkilotlar tashkil etildi.

Xususan, 2017-yilda tashkil etilgan MSYaT hozirda markaziy banklar va moliyaviy nazorat organlaridan iborat 127 nafar a'zo va 20 nafar kuzatuvchini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2022-yilning oktabr oyidan boshlab MSYaTga a'zo hisoblanadi.

MSYaTning maqsadi Parij kelishuvi maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan global harakat chora-tadbirlarini kuchaytirishga ko'maklashish, shuningdek iqlim tavakkalchiliklarini boshqarish va "yashil" loyihamar uchun kapitalni jalb qilishda moliyaviy tizimning rolini kuchaytirishdan iborat.

Shu maqsadda MSYaT soha bo'yicha ilg'or tajribalarni aniqlaydi va targ'ib qiladi hamda "yashil" moliya bo'yicha tahliliy ishlarni olib boradi.<sup>11</sup>

Yana bir tashabbus - bu Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining 2019-yil oktabr oyida bo'lib o'tgan navbatdagi yillik yig'ilishida Yevropa Ittifoqi va boshqa mamlakatlar vakillari tomonidan ekologik barqaror investitsiyalar uchun xususiy kapitalni jalb qilishni kengaytirish maqsadida tashkil etilgan Barqaror Moliyalashtirish bo'yicha Xalqaro Platformadir (BMXP).

BMXP orqali uning a'zolari ilg'or tajribani ilgari surish, milliy tashabbuslarni solishtirish, barqaror rivojlanish yo'lidagi to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topish uchun ma'lumot almashishlari mumkin.

---

<sup>11</sup> NGFS. (2024). Origin and Purpose.

## **6. Strategiyaning tamoyillari va ustuvor yo'nalishlari**

### **6.1. Strategiyaning asosiy tamoyillari**

Markaziy bank tomonidan bank tizimida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha ushbu strategiyada amalga oshirilishi ko'zda tutilgan chora-tadbirlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

**1. Markaziy bankning vakolat va vazifalariga muvofiqlik.** Strategiyada belgilangan chora-tadbirlar Markaziy bankning huquqiy maqomi va vazifalariga to'liq mos keladi;

**2. Xalqaro standartlarga muvofiqlik.** Markaziy bank bank sektorida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarishni tartibga solish va nazorat qilishda BNBQ va MBK kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va standartlariga tayanadi;

**3. Iqlim tavakkalchiliklarini boshqarish bo'yicha me'yoriy baza dastlabki bosqichda tavsiyaviy xarakterga ega bo'lishi.** Dastlabki bosqichda Markaziy bank tomonidan banklar uchun iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarishga oid tavsiyalar ishlab chiqiladi. Banklarda iqlim tavakkalchiliklarini boshqarish bo'yicha ko'nikmalar shakllanganidan so'ng Markaziy bank iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha majburiy tusdagi me'yoriy hujjatlarni joriy qiladi;

**4. Yondashuvlarning bosqichma-bosqichligi.** Banklarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi inson va texnik resurslarga investitsiyalarni talab qilganligi sababli, banklar iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonlarini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yadi;

**5. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklar boshqa tavakkalchiliklarning drayveri ekanligi.** Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklar alohida tavakkalchilik toifalari emas, balki tavakkalchilik omillari ekanligini hisobga olib, banklar iqlim o'zgarishi tavakkalchiliklarni o'zlarining kredit, bozor, likvidlilik va operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlariga integratsiya qilishi ko'zda tutilgan;

**6. Banklarning "yashil" tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda moliyaviy barqarorlikka ustuvorlik berilishi.** Markaziy bank banklarning

bevosita “yashil” faoliyat uchun kreditlar berish va investitsiyalar qilishga qaratilgan tashabbuslari moliyaviy barqarorlikka ziyon yetkazilmagan holda qo'llab-quvvatlanishi lozim deb hisoblaydi.

#### **4-chizma: Strategiyaning asosiy tamoyillari**



#### **6.2. Strategiyaning ustuvor yo'nalishlari**

Strategiya doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning **ustuvor yo'nalishlari** quyidagilardan iborat (5-chizma):

- 1. Tartibga solish.** Banklarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish yuzasidan tavsiyalarni va pirovardida ushbu yo'nalish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- 2. Nazorat.** Banklar tomonidan iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklar boshqarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- 3. Moliyaviy barqarorlik.** Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholab borish;
- 4. Hamkorlik.** Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish sohasida xalqaro tashkilotlar va manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish;
- 5. Pul-kredit siyosati.** Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarning narxlar barqarorligiga bo'lgan ta'sirini tahlil qilib borish;

**6. Salohiyatni oshirish.** Markaziy bank xodimlarining iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklar bo'yicha bilim va kasbiy salohiyatini oshirish.

## **7. Kutilayotgan natijalar**

Strategiyani amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish kutilmoqda:

iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar haqida xabardorlikni oshirish;

bank sektorida iqlim tavakkalchiliklarni boshqarish amaliyotining joriy holatini aniqlash;

iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha zarur me'yoriy-huquqiy bazani yaratish;

banklarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini joriy qilish;

iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni baholashni Markaziy bankning tavakkalchilikka asoslangan nazorat tizimiga integratsiya qilish;

o'tish tavakkalchiliklari va tabiiy tavakkalchiliklarning bank tizimiga ta'sirini yumshatish;

"yashil" siyosatlarni qo'llash natijasida kelib chiqadigan potensial inflyatsiyaviy xatarlar bo'yicha xabardorlikni oshirish;

"yashil" pul-kredit instrumentlarini joriy qilish uchun zamin yaratish;

mintaqaning boshqa regulyatorlari bilan hamkorlik qilish orqali eng maqbul mintaqaviy yondashuvlarni shakllantirish;

"O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ko'maklashish.

## 8. 2025-2027-yillarga mo'ljallangan bank tizimida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish va nazorat qilish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha “CHORA-TADBIRLAR REJA-GRAFIGI”

